

IQTISODIY TADQIQOTLAR
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,
ECONOMIC RESEARCH

ILMIY JURNALI

1
2021

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
(ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,
“ECONOMIC RESEARCH”)**

ILMIY JURNALI

1

2021

Toshkent

1
2021

Elektron ilmiy jurnal
Научный журнал
Scientific magazine

**IQTISODIY TADQIQOTLAR ILMIY
JURNALI**

MUASSIS

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti

Tahrir kengashi raisi:

Abduraxmonov Qalandar Xodjayevich – i.f.d., prof.,
akademik

Tahrir kengashi:

Eshov Mansur Po'latovich- i.f.d., professor
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna – i.f.d., professor
Xudoyqulov Sadreddin Karimovich – i.f.d., professor
Begalov Baxodir Abdusalovich- i.f.d., professor
Bekmurodov Adxam Sharipovich- i.f.d., professor
Vaxabov Abduraxim Vasikovich- i.f.d., professor
Maxmudov Nosir Maxmudovich- i.f.d., professor
Salimov Baxtiyor Tadjiyevich- i.f.d., professor
Mustafaqulov Sherzod Igamberdiyevich- i.f.d., professor
Jumayev Nodir Xosiyatovich- i.f.d., professor
G'ofurov Ubaydullo Vaxabovich- i.f.d., professor
Xolmo'minov Shayzaq Raxmatovich- i.f.d., professor
Amirov Lochinbek Fayzullayevich – i.f.n., PhD
Xatamov Ibodullo Sadullayevich – i.f.n., dosent
Asqarova Mavluda Turopovna- i.f.n., dosent
Xajiiev Baxtiyor Dushaboyevich- i.f.n., dosent
G'ayibnazarov Sanjar Baxodirovich – i.f.n., dosent
Kamalova Malika Nizamovna- i.f.n., dosent
Mamaraximov Begzod Erkinovich- i.f.n., dosent

Tahrir hay'ati:

Begzod O'rinnov- (AQSh)
Uktam Burhanov – (Chekiya)
Bozorboy Berkinov – i.f.d. (O'zbekiston)
Mark Rozenbaum (AQSh)
Wolfgang Lukas (Germaniya)
N.V. Morozov (Rossiya)
Viktoriya Vdovichenko (Ukraina)
Gulyabmir Raxmani (Afg'oniston)
Axmed Muxamed Aziz Ismail (Misr)
Kaukab Azim (Saudiya Arabistoni)
Sherqul Shodmonov (Toshkent)
Rauf Salaxodjayev (Toshkent)
Axmedjon Mamatov (Toshkent)
Ju Jengron (Xitoy)
Jou Chingjiye (Xitoy)

© ISSN 2181-4457

**IQTISODIY TADQIQOTLAR ILMIY
JURNALI**

**1
2021**

**Elektron ilmiy jurnal
Научный журнал
Scientific magazine**

Bosh muharrir:

Eshov M.P.- i.f.d., prof.

Adabiy muharrir

Xajiyev B.D.- i.f.n., dots.

Bosh muharrir o'rbinbosari

Amirov L.F. - PhD

Musahhih:

Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydala-nilganda "Iqtisodiy tadqiqotlar" ilmiy jurnalidan olindi deb ko'rsatilishi shart. Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan. Maqolada keltirilgan dalillar va ma'lumotlar uchun muallif javobgar.

Veb-sayt manzili: <https://economicresearch.tsue.uz>

E-mail: economicresearchjournal@gmail.com

MUNDARIJA

IQTISODIYOT, INNOVASIYA VA TADBIRKORLIK NAZARIYA VA AMALIYOT

Xajiyev B.D.	Milliy iqtisodiyotda daromadlar taqsimoti adolatlilagini ta'minlashning konseptual asoslari	5
--------------	---	---

Mamatov A.A. Erkayev A.N.	O'zbekiston iqtisodiyotini transformasiyalashuvi jarayonida investision mexanizmning roli	13
------------------------------	---	----

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: MAKROIQTISODIY YONDOSHUV

Maxmudov N.	Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat	24
Amirov L.F.	O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish muammolari	33

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH, IJTIMOIY SIYOSAT VA BANDLIK

Goyipnazarov S.B., Saidov N.R., Yuldashev S.	Human capital and methodological aspect of calculating it: a global approach	45
Irmatova A.B., Isamuxamedov B.B.	O'zbekistonda kambag'allik holatining tahlili	57
Qosimov A.A.	Mehnat bozorining rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash yo'llari	72

TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH

Salimov B.T., Salimov B.B.	Kichik va o'rta biznesni innovasion rivojlantirish	81
Yusupov M.S., Ismoilova G.T.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimini rivojlantirish mexanizmlari	86
Salimov Sh.B.	Kichik va o'rta biznesda innovasion faoliyatni rivojlantirish	103

TILSHUNOSLIK VA PEDAGOGIKA: ILM-FAN RIVOJLANTIRISH

YULLARI, MUAMMOLAR, TAXLIL VA NATIJA

Muhiddinova M.S.	Muqimiy ijodining yetakchi xususiyatlari	109
Kamalova M.N.	Модернизация системы языковой подготовки студентов неязыковых вузов Узбекистана	124
Xolmatova Sh.M.	Профессиональная компетенция в процессе преподавания русского языка как иностранного	131

TILSHUNOSLIK VA PEDAGOGIKA: ILM-FAN RIVOJLANTIRISH

YULLARI, MUAMMOLAR, TAXLIL VA NATIJA

“Muqimiy ijodining yetakchi xususiyatlari.”

Muxlisa Satriddinovna Muhitdinova,
TDIU “O’zbek tili va adabiyoti” kafedrasи o’qituvchisi,
muxlisamuhitdinova777@gmail.com, +998903278808

Maqola annotatsiyasi . (Abstract)

Dunyo matnshunoslik ilmida matn tarixi va tahriri masalasi tadqiq etilishi asosiy ilmiy muammolardandir. Matn tarixi shoir ijod laboratoriysi, matn yuzaga kelish jarayonidagi maqsad va rejalar dan tortib, matnning xozirgi davrdagi holatigacha bo’lgan o’zgarishlarni o’zida jamlagani uchun bu masalani o’rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyo matnshunoslida badiiy matn tahriri mamlakatimizda yetarli darajada tadqiq etilgan emas. Mustaqillik davri matnshunoslida XIX asr ohiri - XX asr boshlari Qo’qon adabiy muhitida yashab ijod etgan ma’rifatparvar ijodkorlar adabiy merosini organish borasida salmoqli islar amaliga oshirildi. Ana shunday ijodkorlardan biri Muhammad Aminxo’ja Mirzaxo’ja o’g’li Muqimiy hayoti va ijodiy merosi kommunistik mafkura sharoitida holis va to’laqonli tadqiq etilmaganidek, mustaqillik davrida ham to’liq o’rganilgan emas. Shu bois Muqimiy sheriyat qo’lyozmalarini qiyosiy-matny o’rganish va shoir nazmiy asarlarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik erishgan bugungi yutuqlari asosida qayta tadqiq qilish zarurati mavjud. Muqimiy ijodining o’ziga xos qirralari, shoir she’riyatini o’rgatishdagi samarador usullar, qolaversa, o’qitishning zamonaviy usullari, innovatsion ta’lim texnologiyalari afzallikkari va imkoniyatlari yoritilgan. Tilshunoslilik fani bugungi kunda tilning barcha sohalarida ulkan yutuqlarni qo’lga kiritdi. Tilda bir qator yangi yo’nalishlarning maydonga kelishi (kompyuter lingvistikasi, psixolingvistika, matematik lingvistika, sotsolingvistika va boshq.) va ularni tadqiq etish bilan bog’liq holda yaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ko’lami ham bundan dalolardir. Matn va uning tabiatini o’rganishga bag’ishlangan tadqiqotlar XX asr oxirlariga kelib paydo bo’ldi. Matn tilshunosligi masalalari V.Matezius, I.Galperin, L.Loseva, O.Moskalskaya, K.Abdullayev, o’zbek tilshunoslida R. Qo’ng’urov, I. Qo’chqortoyev, Q. Samadov, N.Mahmudov, M.Yo’ldoshev, X.Doniyorov, E. Qilichev, S. Karimov, B.Umrqulov kabi olimlar matn haqida o’zlarining fikrlarini ilgari surganlar.

Одна из основных научных проблем в мире текстологии - изучение истории и редактирование текста. Изучение этого вопроса имеет особое значение, поскольку история текста включает в себя изменения в лаборатории поэтического творчества, от целей и планов в процессе формирования текста до текущего состояния текста. Литературное редактирование в нашей стране изучено недостаточно, несмотря на то, что изучение художественных текстов в мире литературы изучено глубоко. В текстологии периода независимости была проделана значительная работа по систематизации литературного наследия просвещенных художников, живших и творивших в литературной среде Коканда в конце XIX - начале XX вв., Равно как и его творческое наследие не было объективно исследовано в контексте коммунистической идеологии, он не был

полностью исследован в период независимости. Следовательно, существует необходимость в сравнительном изучении рукописей поэзии Мукими и переоценке поэтических произведений поэта на основе современных достижений в области текстовых и литературных источников. По-разному трактовались масштабные лирические и юмористические произведения Мукими. Выделены особенности творчества Мукими, эффективные методы обучения поэзии поэта, а также современные методы обучения, преимущества и возможности инновационных образовательных технологий. Лингвистика сегодня добилась больших успехов во всех областях языка. Появление ряда новых направлений в языке (компьютерная лингвистика, психолингвистика, математическая лингвистика, социолингвистика и др.) И развитие научных исследований, связанных с их изучением. текст и его природа появились в конце XX века. Проблемы текстовой лингвистики В. Матезиус, И. Гальперин, Л. Лосева, О. Москальская, К. Абдуллаев, в узбекском языкознании Р. Кунгурев, И. Кочкартоев, К. Самадов, Н. Махмудов, М. Юлдашев, Х. Дониёров, Э. Киличев, С. Каримов, Б. Умруколов.

One of the main scientific problems in the world of textual criticism is the study of history and text editing. The study of this issue has had particular importance, since the history of the text includes changes in the laboratory of poetry, from goals and plans in the process of forming the text to the current state of the text. Literary editing in our country has not been sufficiently studied, despite the fact that the study of literary texts in the world of literature has been studied deeply. In the textual criticism of the period of independence, significant work was done to systematize the literary heritage of enlightened artists who lived and worked in the literary environment of Kokand in the late XIX - early XX centuries, as well as his creative heritage was not objectively and fully realized. researched in the context of communist ideology, it was not fully researched during the period of independence. Consequently, there was a need for a comparative study of the manuscripts of Mukimi's poetry and a revaluation of the poet's poetic works on the basis of modern achievements in the field of text and literary sources. The features of Mukimi's creativity, effective methods of teaching poetry, as well as modern teaching methods, the advantages and possibilities of innovative educational technologies are highlighted. Linguistics today has made great strides in all areas of the language. The emergence of a number of new directions in the language (computational linguistics, psycholinguistics, mathem. linguistics, sociolinguistics) and the development of scientific research related to their study. The text and its nature appeared at the end of the XX cent . Problems of textual linguistics V. Matezius, I. Galperin, L. Loseva, O. Moskalskaya, K. Abdullaev, in Uzbek linguistics R. Kungurov, I. Kochkartoev, K. Samadov, N. Makhmudov, M. Yuldashev, H. Doniyorov, E. Their views on the text were expressed by such scholars as Kilichev, S. Karimov, B. Umrukulov.

Tayanch so'zlar (Key words)

O'zb: qiyosiy-matny o'rganish, matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, kompyuter lingvistikasi, psixolingvistika, matematik lingvistika, sotsolingvistika

Rus: научные проблемы, мир текстологии, изучение истории, предактирование текста, эффективные методы обучения, современные методы обучения, преимущества, возможности инновационных образовательных технологий, лингвистика, компьютерная лингвистика, психолингвистика, математическая лингвистика, социолингвистика

Ingliz: scientific problems, the world of textual criticism, the study of history, and text editing, effective teaching methods, modern teaching methods, advantages, computational linguistics, psycholinguistics, mathematical linguistics, sociolinguistics

Kirish (Introduction)

Bizga ma'lumki, Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyevning tashabbuslari bilan OTTda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019- yil 11- iyulda “Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida”³⁵, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”³⁶gi qaror va farmoyishlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Kontseptsiyada O‘zbekiston Respublikasida OTTni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari va kompleks chora-tadbirlar asoslab berilgan. Ayni paytda jamiyatda muhim rol o‘ynaydigan pedagogik kadrlarning o‘z yo‘nalishi bo‘yicha chuqr bilim, malaka, kompetensiyalarga ega bo‘lishi, ilg‘or xorijiy tajriba va milliy pedagogik tajribaga tayanib ish ko‘rishi, ijodkorlik, tashabbuskorlik sifatlariga ega bo‘lishi talab qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda istalgan kasb egasining buyuk adabiyotimizning boy merosidan bahramand etish, insoniyat ongini din-u diyonatimiz, milliy qarashlarimizga zid bo‘lgan g‘oyalardan asrash kun tartibida turgan muhim mavzulardan biridir. Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida: “Adabiyot- xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”³⁷. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ilm va nutq madaniyati borasida ham qimmatli fikr - mulohazalar bildirilgan. “Bilimni buyuk bil, o‘quvni ulug‘ bil” tamoyili asarning bosh g‘oyasini tashkil etadi. U mamlakat rivojini, dunyo voqealarini tahlil qila oladigan, chuqr bilimli, siyosiy yetuk va hushyor bo‘lmog‘i kerak. Yusuf Xos Hojib nutq madaniyati haqida fikr yuritar ekan, uni qonun ijrosi, qonun ustuvorligi, adolat, odil hukm, poklik kabi tushunchalar bilan mushtarak deb biladi. Mamlakatda adolatli qonun ustuvorligi xalq hayotini ta’minlovchi bosh masala ekanligini ta’kidlaydi. Ana shu asos ijtimoiy hayotda ustuvor bo‘lishini ta’minalash lozim. El rahnomalari, boshqaruv tizimi vakillari bo‘lsa, adolat bilan ish yuritadi, mamlakatda farovon turmushni ta’min etadi, shuning uchun mutafakkir bilim borasida: Yana bir hikmat: Hazrati Odam Bilim, aqlu idrok, sabab muhtaram. Bilimni buyuk bil, o‘quvni ulug‘ Shu ikkov ulug‘lar kishini, deb yozganida mutlaq haq edi. Bu

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldag“Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida” gi qarori

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”³⁶gi qaror va” PQ-2909 sonli qarori

umuminsoniy qadriyatlar, mamlakatda qonun ustuvorligi vaadolat tamoyillari bilan bevosita uyg'unligini qayd etishi lozim. Yusuf Xos Hojib insonni ulug'laydi. Har bir narsani bilish, uning tub mohiyatiga yetish, insonning qo'lidan keladi, deb aytadi. Halq, millat mavqeyi davlat boshqaruv tizimiga qarab belgilanadi. Chunki davlat boshlig'i, mamlakat boshqaruv tizimi ijtimoiy hayotga, kishilar ma'naviy, ahloqiy turmush tarziga ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Farovon, osoyishta turmushning asosiniadolatli boshqaruv tizimi tashkil qiladi. Shu nuqtai nazarda jahon madaniyati va adabiy-estetik tafakkuri rivozhida matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasi muhim o'rinn tutadi. Asrlar asosida saqlanib kelayotgan turli davrlarga mansub qo'hhna manbalarini o'rganish, ulardan jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida foydalanish dolzarb vazifalardandir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review)

Asosiy ilmiy muammoning nazariy va amaliy masalalari rus matnshunoslari D.S.Lixachev, B.V.Tomashevskiy ilmiy ishlarida, faol o'zbek olimlari P. Shamsiev, D. Sulaymon, G. Karimov, Sh.Sirojiddinov, B. Tuxliev, N. Jabborov, N. Rahmonov, D. Boltaboev, A. Erkinov, N. Shodmonov, R. Zohidov tadqiqotlarida aks etganlar. Muqimiy Ijodini o'rganish uning hayotlik chog'idan boshlangan bo'lsada, shoir adabiy merosi matn tarixi va tahriri nuqtai nazaridan tadqiq etilmagan. Muqimiyishunoslik, asosan, shoir asarlarini nashr ettirish va ommalashtirishdan boshlangan. Jumladan, "Turkiston viloyatining gazetasi" da shoirning lirik shoir va xajviy sherlari chop etilgan. Sankt-Peterburgda nashr etilib turgan «Записки Восточного отделения императорского Русского Археологического общества» to'plamining 1894 yildagi IX tomida Muqimiy xajviy asarlaridan na'munalar berilgan. N. Ostroumov Muqimiy asarlaridan saralab, 1907 yilda "Devoni Muqimiy" 6, Muhammad Kosim Doda Muhammad o'g'li "Devoni Mukimiya ma'a xajviyot" (1910-1912) ikki marta, Abdulkodir Xuqandiy tomonidan qabul qilingan. 1907-yilda Muqimiy vafotidan to'rt yil keyin Nikoloy Ostroumov Toshkenda "Devoni Muqimiy" nomi kichik bir to'plam nashr ettirdi. To'plamning oxirida N.Ostroumov tomonidan yozilgan kichik maqola ham ilova qilingan bo'lib ,bu maqolada muallif Muqimiyning tarjimaiy holi haqida ma'lumot beradi , uning shaxsiyati va ijodiy faoliyatini baholaydi . Ostroumov Muqimiyni " umrini qalandarona o'tkarmoqni lozim" topib , tarki dunyo qilgan , darveshlik tariqatini qabul etgan kishi , deb talqin qiladi. Ostroumov o'z xarakteristikasining oxirida Muqimiy kunduzlari din ahllari hizmatida bo'lar va madrasa hujrasida o'tirar , kechalari esa qur'on o'qish va she'r yozish bilan shug'ullanar edi, deb ko'rsatadi. Shunday qilib, Ostroumov Muqimiyni bu dunyodan voz kechgan, tarki dunyo qilgan dindor, fanatic bir shaxs qilib ko'rsatadi. U "Baez ma'a hajviot mavlono Muqimiy ma'a mavlono Furqat" nomli to'plamlarni toshbosma usulida chop etdi. Ijodkor adabiy merosi XX asrning 20-yilidayoq tadqiqotchilar e'tiborini tortgani ma'lum. 1910-yilda Toshkentda Porsev litografiyosida "Devoni Muqimiy maa hajviyot" nomi bilan Muqimiy asarlarining to'plami nashr qildi. 1912-yilda Toshkentda Orifjonov tipolitografiyasida Muqimiy asarlarining ikkinchi to'plami nashr qilindi. Bu har ikki to'plamda ham Muqimiy ijodiy qiyofasin yoritishda N.Ostroumov konsepsiysi davom ettrildi. Muqimiyning adabiy merosini to'plash va nash qilish sohasida shoir G'afur G'ulom tamonidan tuzilib, 1938-yilda Toshkentda nashr etilgan "Muqimiy bayoziy" nomli to'plamli katta ahamiyatga

ega bo'ladi. "Bayoz" da shoirning 800 misradan iborat 27 she'ri berilgan bo'lib, ular janr pirinsipiga qarab joylashtirilgan (satira, humor, lirika) va ularga zaruriy izohlar, lug'atlar berilgan. Shuningdek, bu davrda Muqimiy asarlarining to'plami, uning ijodiga doir bir qancha ilmiy -ommabop maqolalar nashr etilib , shoir ijodini bundan keyin chuqur o'rzanish uchun keng imkoniyat ochildi. Muqimiy ijodiga oid problematic masalarni qo'zg'ash va yoritish jihatidan Oybekning "Muqimiy asarlarida satsial tirlar "sarlavhali maqolasi diqqatga sazovar. 1950-yilda Moskva davlat badiy adabiyot nashriyotida Muqumiyning " Lirika va satira " nomli ikinchi to'lami rus tilida chiqarildiki, bu to'plam xam rus kutubhonalarini Muqimiy ijodi bilan tanishtirish jihatidan katta ahamiytg'a ega bo'ldi. Shoir Ijodini jiddi o'rganish o'tgan asrning 30chi yillarida boshlandi. Bu ishning boshida shoir Gafur G'ulom turdi. Uning tashabbusi bilan 1938 yil "Muqimiy bayozi" 9 tuzili, nashr etildi. Professor G.Karimovning 1962 yil yoqlangan "o'zbek demokrat shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti" mavzusidagi doktor bitiruv loyiha ishi muqimiyishunoslikda alohida o'rin tutadi. Mazkur tadqiqotlarda shoir hayoti va ijodiy merosi manbalari qism an o'rganilgan. Bizningcha, shoir adabiy merosi tadqiqida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Muqimy biografiyasiga mansub adabiy muhit, ijodiy merosi manbalari haqida ma'lumotlar berildi .
2. Shoirning she'riy asarlariga oid yangi manbalar aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritildi va tahlilga tortildi.
3. Muqimy she'riy asarlaring janr va goyaviy-badiiy xususiykiklari xakida fikrlarni bildi.

Keyingi yillarda Muqimiy ijodiga bag'ishlab chiqarilgan kitoblar: H.Yoqubovning "O'zbek demokrat shoir Muqimiy" (1953), A.Olimjonovni "Muhammad Amin Muqimiy" (1953) H. Rozzoqning " Muqimiy va Zavqiy" (1955) nomli kitoblari xamda "Furqat va Muqimiy" (1958) nomli maqolalar to'plami, Muqimiy "Tanlangan asarlari"ning (1958) rus va o'zbek tillaridagi nashri, Muqimiyning ikki to'mlik asarar to'plami (1960) bunga yoqqol misol bo'la oladi. 1970-yilda G'ofur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyotida "Muqimiy Xayoti va ijodi" nomida birinchi martaba monografiya nashr etildi. Muqimiy merosining katta qismi g'azal, murabba va muxammaslar tashkil etadi. Shoirning juda ko'p g'azallari uning tirikligidaniyoq qo'shiq qilib kuylagan. Ma'rifatchi shoir she'rlarida go'zal insoniy tug'ular yoqimli va tushunarli ifodalangani uchun xalq orasida tez yoyilardi. Muqimiy she'rlarida Mamajon makay, Nizomxon, Farzincha, Ismoil naychi singari o'z davrining taniqli san'atkorlari ni tilga oladi. Muqimiy ijodi san'atkor zamondoshlari e'tiborida bo'lganligi bejiz emas. Shoirning she'riyati musiqiy, ohangdor bo'lgani kabi ularning mazmun-mundarijasi ham davrga homohong edi. Muqimiy milliy ozodlik harakati haqida sherlar yozgan, o'z salohiyati va mavqeい bilan maktab yaratgan shoir edi.A. Shokirov, O. Juraboev singari olimlarning shoir asarlari qo'yozma manbalari ustidan olib borgan tadqiqotlari muqimiyishunoslikka qo'shilgan munosib hissadir Biroq shurolar davridagi aksar tadqiqotlarda

kommunistik mafkura talablariga asoslangan Muqimiyning ko'plab she'riy asarlari tahrir qilinib, lirk shoir va hajviy asarlari o'z mohiyatiga zid talqin etilgan. Shu sababning o'ziyoq shoir sheriy merosini mustaqillik mafkurasi mezonlari asosida qayta baxolash, Muqimiyy dunyoqarashini, ijtimoy vokelikka aloqalarini, izhodkor sifatidagi tutumini belgilash nechog'lik dolzarb vazifalaridan ekanini ko'rsatadi.

1953-yili Muqimiyy vafotining 50 yilligi munosabati bilan bir qator tadqiqotlar yaratilib, muqimiyyshimoslikka asos solindi. Homil Yoqu bov, Abdulla Olimjonov, Hodi Zaripov, Hoshimjon Razzoqov, G'ulom Karimov, Abdurashid Abdug'afurov kabi olimlar salmoqli ishlar yaratdilar Muqimiyyshunoslik necha xil yo'nalishda bordi? Muqimiyyshunoslik ikki yo'nalishda bordi:

a) Muqimiyy ijodini bevosita o'rganish,

b) shoir ijodini ijtimoiy-tarixiy yo'sinda, zamondoshlari va o'tmishdoshlari hamda izdoshlari merosiga qiyosan o'rganish. Professor G'ulom Karimov (1909-1991) - muqimiyyshunoslik mакtabiga asos solgan olim. Allomaning bu boradagi ilk maqolasi "Muqimiyning hayoti va ijodini o'rganish tarixidan"(1957) oliv o'quv yurtlari talabalari uchun yozilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" (3-kitob)idagi (1966, 1975, 1987) Muqimiya bag'ishlangan tadqiqotlari, 1962-yili yoqlagan "O'zbek demokrat shoiri Muqimiyy va uning davri adabiyoti" doktorlik dissertatsiyasi, 1970-yili nashr etgan "Muqimiyy. Hayoti va ijodi" monografiyasi muqimiyyshunoslik ilmining sara namunalaridir. Shoir asarlarining shu kungacha amalga oshirilgan ko'pi adabiyotshunos olim, professor G'ulom Karimov nomi bilan bog'liq. Muqimiyyshunoslik istiqlol munosabati bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Shoir bosib o'tgan murakkab ijodiy yo'l, uning sermazmun adabiy merosini mustaqillik, Millat va Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan ko'zdan kechirish va xulosalar chiqarishga ehtiyoj bor. Bu borada professor G'ulom Karimov izdoshlari samarali ish olib bormoqdalar. Nurboy Jabborov, Qo'ldosh Pardayev tadqiqotlari. Muqimiyyshunoslik istiqlol munosabati bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Shoir bosib o'tgan murakkab ijodiy yo'l, uning sermazmun adabiy merosini mustaqillik, Millat va Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan ko'zdan kechirish va xulosalar chiqarishga ehtiyoj bor. Bu borada professor G'ulom Karimov izdoshlari samarali ish olib bormoqdalar. Nurboy Jabborov, Qo'ldosh Pardayev tadqiqotlari.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar dars shaklida qo'llaniladi.: o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi; o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi; shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi; insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi; o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish

va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab: sujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferensiyalar, o‘yin-mashqlarga ajratish mumkin. O‘qituvchi-pedagog avval talabalarni yakka tartibdagi, so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa, ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarning o‘ziga xos xususiyatlari

Didaktik o‘yinli mashg‘ulot	Mavzu mazmuni qanday bo‘lganda mazkur mashg‘ulotdan foydalilaniladi.	Mashg‘ulotlarning didaktik funksiyalari	Talabaning faoliyat
Sujetli-rolli	Fanning turli sohalarida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish, tabiattdagi kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo‘lganda	Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat ob’ektlari va tabiiy hodisalar o‘rtasidagi aloqalar va bog‘lanishlarni adabiy-badiiy tarzda o’rgatish	Muayyan rollarni bajarish orqali bilim, ko‘nikmalarni egallash
Ijodiy o‘yin	Avval o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo‘lganda	Muammoli vaziyatlarni avval o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni ijodiy qo‘llash orqali hal etish	Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o‘zlashtirish
Ishbilarmonlar o‘yini,auksion	Turli ob’ektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo‘lganda	Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida talabalarning dunyoqarashini kengay-tirish, kasbga yo’llash	Auktsionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o‘zlashtirish
Konferensiya	Fanning turli sohalariga oid bilimlar mujassamlashgan va qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog‘lanishlarni amalga	Qo‘srimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, ilmiy, ilmiyommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishslash, yoshlarni mustaqil	“Olimlar” maqomini olib, muayyan mavzularda izlanishlar olib borish

	oshirish imkoniyati bo'lganda	hayotga tayyorlash, kasbga yo'llash	
Matbuot konferensiyasi	Fanning turli sohalarini qamrab olgan, talabalarning avval o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanish lozim bo'lgand	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, darslik, ilmiyommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash	"Olimlar" va "Muxbirlar" maqomini olib mavzuni o'zlashtirish

Aqliy hujum – o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan.

Mazkur metod talaba oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi. Aqliy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:


1. O'yash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Qatnashchilar manfaatdorlik yo'liga tushadilar va o'z fikr-g'oyalarini himoya qilishga berilib ketib, yangi fikr aytish, kashfiyotlar qilishni o'ylamay qo'yadilar.

2. Har bir talaba bitta masala yuzasidan xilma-xil mulohazalar topishga yo'naltiriladi. Talabalarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar o'z fikrlarini qayta qo'llashga, bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar.



Moslikni toping. Tushunchalarni tekshirish. O‘qituvchi darsning bu qismida faolroq bo‘lishi lozim. Chunki yangi mavzu talaba tomonidan qanchalik o‘zlashtirilganligi aynan mana shu qismda namoyon bo‘ladi. Uch guruhga bo‘linib, ularga quyidagi topshiriqni berish mumkin: Uch millat vakillari va satirik shoirlarga qiyosiy tavsif bering. O‘quvchilar tafsilotlarni o‘zlari tahlil qilishga harakat qilishadi va ularlarning o‘xshash hamda farqli tomonlarini «Venn diagrammasi»dan foydalanib topishadi.

VENN DIAGRAMMASI



MUQIMIY_SAYOHATNOMA

؟Qayerga borayotganda chitfurush yo‘ldosh bo‘ladi? O‘ltarmaga

？Qayerga tush vaqtida yetib boradi va borganda bozor bo‘layotgandi? O‘ltarma

3. G‘oya va fikrlarning miqdori rag‘batlantiriladi. Ma’lumki, miqdor odatda o‘sib sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdordagi g‘oyalalar paydo bo‘lganda ularni baholash mumkin. Qatnashchilarning o‘z tasavvurlariga erk berishiga imkoniyat yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g‘oyalalar tug‘iladi.

4. Har bir talaba o‘zgalar g‘oyasiga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Chunki fikrdan fikr tug‘iladi. Oldin taklif etilgan g‘oyalarni biriktirish yoki o‘zgartirish, ko‘pincha, asos bo‘lgan fikrdan kuchliroq, yaxshiroq g‘oyalarni keltirib chiqaradi. Aqliy hujumdan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Talabalar erkin o‘tiradigan qilib joylashtiriladi.
2. G‘oya va fikrlarni yozish uchun darstaxta yoki varaqlar tayyorlab qo‘yiladi.
3. Hal etilishi lozim bo‘lgan muammo aniqlanadi.
4. Ish jarayoni belgilab olinadi: a) g‘oyalalar baholanmaydi; b) fikrlashga to‘liq erk beriladi; v) g‘oyalalar ko‘p va xo‘p bo‘lishiga (miqdorga) intilinadi; g) o‘quvchilar faoliyati «ilg‘ab oling», «ilib oling», «g‘oyalarga asoslaning», «qo‘sning», «kengaytiring», o‘zgartiring» singari chaqiriqlarga asosan uyushtiriladi;
5. Qo‘ylgan muammo yuzasidan fikrlar so‘raladi va yozib boriladi;

6. O‘zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali sharhlar va mayna qilishlarga aslo yo‘l qo‘yilmaydi;

7. Varaqlar g‘oya va fikrlar bilan to‘lganda ular ko‘rinarli erga osib qo‘yiladi;

8. G‘oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi;

9. SHundan so‘ng yangi, kuchli, asosli g‘oyalar o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi. SHuning uchun bu metodga tadqiqotning alohida bir bobi ajratildi. Quyida talabalarni mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatishda qo‘llaniladigan mantiqiy metodlarning suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv turlari va ularning xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Suhbat metodi o‘quvchi tafakkuri mustaqilligini ta‘minlashda muammoli ta‘limdan keyingi asosiy metod h Assalomu alaykum yana bir bor salom, aziz hamkasblar, biz bugungi talabalar orasida badiiy mutolaaga bo‘lgan qiziqishning yo‘qligi bilan doimo duch kelmoqdamiz.Bu muammoning yechimlaridan biri bu talabalarning ijodiy, tashkiliy, badiiy va boshqa qobiliyatlarini ochib berish va ularni asrab qolish imkonini beradigan loyiha usuli kabi. TDIUda biz "Muqimiylizidan" loyihasini amalga oshirmoqdamiz. Uni amalga oshirishda sizga "Tanobchilar" asari misolida ishtirok etishni taklif qilaman. Loyihaning maqsadi: rusiyabon guruh talabalarni Muqimiylizodiga qiziqish uyg‘otish.Ushbu loyiha ma'lum bir guruh tomonidan bitta topshiriqni bajarishini ham, reklama videosini yaratish uchun guruhlarni birlashtirishni ham, har bir guruh tomonidan barcha vazifalarni bajarilishini va 3 ta reklama roliklarini yaratishni o‘z ichiga oladi. Bugun siz ushbu loyihami I variant bo‘yicha amalga oshirishga harakat qilasiz.Siz 3 guruhga bo‘lingansiz:- matn yaratuvchilar; - sahnalarni yaratuvchilar; - obraz yaratuvchilar. loyihaning birinchi bosqichida siz o‘zingizning vazifangizni topshiriq varaqalari bilan to‘ldirishingiz kerak, uni bajarish uchun besh daqiqa vaqt ketadi.Loyihaning ikkinchi bosqichida jamoalar reklama roliklarini suratga olish uchun birlashadilar.Qani boshladik! Guruhlar topshiriqni bajarayotganda, kurator guruhlar faoliyatini navbat bilan boshqaradi. Hamma tayyor bo‘lgandan so‘ng, u reklama roliklarini suratga olishni muvofiqlashtiradi.Shunday qilib, aziz hamkasblar! Siz loyihami yaratdingiz, uning mahsulotini endi ko‘rib chiqamiz, ammo natijada paydo bo‘lgan reklamani kompyuterga o’tkazayotganidagi, men master-klass ishtirokchilaridan so‘rovnama savollariga javob berishni so‘rayman:Reklamani tomosha qilgandan keyin. Koordinator master-klass natijalarini sarhisob qiladi. Lekin bu ishlarda ta‘limning oldiga boshqacha maqsadlar qo‘yilgan. Suhbatning vazifasini belgilab, unga tayyorlanish davomida o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga vazifa qo‘yib, masalani mustaqil ravishda, to‘g‘ri hal etishga yordam beradigan savollar tuzadi. Suhbat metodi adabiy ta‘limning barcha bosqichlarida: kirish darslarida ham, badiiy asarni o‘zlashtirishda ham, uning tahlili mobaynida ham, yakunlovchi bosqichida ham qo‘l keladi. O‘quvchilar suhbat savollariga hamisha ham asoslangan, jiddiy javoblarni beraverishmaydi. Savollarga o‘quvchilarning to‘laqonli javoblar berishida o‘qituvchining yordamchi savollari qo‘l keladi. Bunday vaziyatlarda bitta fikrga aniqlik kirituvchi, o‘scha fikrni rivojlantiruvchi bir yoki bir nechta savol beriladi. Evristik metoddan foydalanganda o‘qituvchi o‘quv materialining suhbat metodida foydalangan tizimini to‘liq qo‘llashi mumkin. Faqat uning tarkibini qo‘sishimcha bilim olishga yo‘naltiradigan savollar bilan to‘ldiradi. Mazkur metod tahlili shuni ko‘rsatadiki, u

suhbat metodiga daxldor bo‘lgan barcha usullarning birgalikda qo‘llanilishini talab qiladi. Bunda savoltopshiriqlarning mantig‘i va vaqt masalasida bir oz tafovut bo‘ladi. Evristik metoddagi etakchilik qiladigan savollar qo‘zg‘atuvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday asosdagi suhbat tizimi buni bajaring, buni kuzating, topshiriqning savollariga javob bering, ma’lumot oling, aytilgan ishlarni bajaring, xulosalarini taqqoslang, xulosa chiqaring kabi ko‘rsatmalar bilan ta’minlanganda, o‘quvchilarning fikrlash va bilim olish mustaqilligini anchagina ko‘tarishi ma’lum bo‘ladi. Bolalar taqqoslash, tahlil qilish, dalillar keltirish singari ish turlarini yangi vaziyatga ko‘chiradilar, shu bilan birga ma’lum umumlashmalar qiladilar, farazlarni ilgari suradilar, zarur ashyolar, materiallar to‘playdilar, xulosalar chiqaradilar, ma’lum masalani hal qilish bosqichidagi o‘z faoliyatini rejallashtiradilar. Bu o‘qitishning yangi usullari bo‘lmish bilimlarni faollashtirish, metodlarni ustma-ust qo‘llash kabilarni kiritish zaruratini tug‘diradi. Adabiy ta’lim jarayonida qo‘llanilgan evristik metod o‘quvchilarning bilim olishi va tafakkuridagi mustaqillikning nisbatan yuqori bo‘lishini ta’minlaydi, ularda mustaqil mulohazalar yuritish, muhokama qilish, xulosalar chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Tadqiqot metodining evristik metoddan farqi shunda ko‘rinadiki, “kashfiyot” avvaldan ajratilgan materiallar tahlilidan keyin, faktik materiallar umumlashtirilganidan so‘ng amaliy ish jarayonida sodir bo‘ladi. YA’ni ma’lumot to‘plashdan tortib, uni tahlil qilish va yangi bilimlarni mustaqil ravishda amaliyotga qo‘llashgacha bo‘lgan ishlarni qilish nazarda tutiladi. Keyingi paytlarda adabiy ta’lim amaliyotida “noan’anaviy dars” nomini olgan bahs-munozara, musobaqa, ssenariyli dars, konferensiya dars, sayohat darsi, nazm darsi, suhbat darsi, tahlil darsi kabi dars turlari keng tarqaldi. Adabiyot darslarida, u ta’limning qaysi bosqichida bo‘lishidan qat’i nazar, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.Muqimiy kim? Siz shoir haqida nimalar bilasiz?	
--	--

“Kichik guruhlarda ishslash” metodi – o‘quvchilarni faollashtirish maqsadida kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.“Kichik guruhlarda ishslash” metodi qo‘llanilganda o‘qituvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Adabiy yo'nalish	«литературное направление», «литературное течение»	adabiy jarayon bilan bog'liq kategoriya. A.y. tushunchasi hayotni badiiy aks ettirish printsiplari, metod va uslub tushunchalari bilan bevosita bogliq, u badiiy tafakkur tarzi, metod va uslub kesishgan nuqtada yuzaga keladi
Analiz (Tahlil)	Юонча analysis - кисмларга ажратиш	Badiiy tahlil
Antiteza	Юонча antithesis - каршилантириш	obraz zamiridagi narsa, hodisa, tushunchalarni keskin qarshilantirishga asoslangan stilistik figura, % ma'noda tazodga to'gri keladi.
Badiiy asar	adabiy	adabiyot va san'atning voqe' bo'lismi va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy muloqot vositasi.
Badiiy tahlil	арабча - текшириш, хал килиш	asarning mazmun-mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudligini turli aspektlarda o'rganib, o'ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy intellektual faoliyat.
Badiiy shakl va mazmun		voqelikdagi har qanday narsa o'zining tashki ko'rinishi (shakli) va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyati (mazmun)ga ega.
Interpretatsiya	Лотинча interpretation - тушунтирумок	talqin; adabiy asar mazmunini idrok qilish, uning mazmuni, badiiy kontseptsiyasini anglash, tushunish.
Intertekstuallik	Лот. inter - apo, textum - тукима, мато, матн	fanga frantsuz filologi Yu.Kristeva kiritgan termin.Unga ko'ra,, har qanday matn avval mavjud bo'lgan matnlarni transformatsiya qilgan holda o'ziga singdirgan sitatalar majmuidir.
Kontekst	Лотинча con - бирга, textus - мато, тукилган	alovida so'z (matn birligi)ni qurshab turgan va uning ma'nosini tushunilishiga asos bo'luvchi matn, uni tashkil etayotgan so'zlarning bevosita lugaviy ma'nosidan keng bo'lgan ma'no tizimi.
Matnshunoslik		filologiya fanining tarmog'i, adabiyotshunoslikning yordamchi sohasi.
Metod	Юонча methodos - тадқик усули	ijodiy metod; marksistu estetikaning asosiy termin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asridir. Bu asr insoniyat uchun misli ko'rilmagan imkoniyat eshiklarini ochib bermoqda. Shu bilan birga insoniyat ilgari duch kelmagan keskin muammolar, tahlikali vaziyatlar girdobiga tushib qolmoqda. Bugungi murakkab zamonda ijodkorlarning mehr-oqibat, ezgulik, insonparvarlikni ulug'lab yozgan badiiy asarlari juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhlasiz, ziyolilarning ilg'or qismi bo'l mish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlarini, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o'rni va ta'siri beqiyosdir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Badiiy adabiyot vakillarining ijod namunalarini o'rgatish va tahlil qilish, talaba yoshlarni o'zbek adabiyotining boy imkoniyatlardan foydalangan holda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, keng dunyoqarashga ega bo'lgan ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashda adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'rni beqiyos. Shu sababli oliy ta'lim tizimida ushbu fanga oid mavzularning keng yoritilishi taqozo etiladi. Adabiyot o'qitish jarayonida, ayniqsa, she'riyatni o'rgatish mobaynida interfaol usullardan keng foydalanish talabalar tomonidan o'quv materialini chuqur o'zlashtirish, ularda yangi bilimlami egallashga intilish, ijodiy qobiliyat, olingen bilimlarga nisbatan tanqidiy fikrlesh hamda amaliyotda qo'llash kabi bugungi kun uchun o'ta muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu masalaga Muqimiyl she'riyati asosida to'xtalib o'tishga harakat qildik. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdir, bu talabni yuzaga keltirishda innovatsion metodlar, xususan, grafik organayzerlar ishonchli vosita bo'la oladi. Bugungi kunda o'quv muassasalarida o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Darslarda axborot texnologiyalarini qo'llash, turli metodologik yondashuvlarga amal qilish o'z o'rnidagi fundamental tushunchalarni oson va puxta egallash imkonini yaratadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati : (References)

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. T., 2016. 56 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokrat O'zbekiston davlatini barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016. - B. 14.

3. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash - xalqimiz manaviy olamini uyg'otish asosidagi poidevoridir. Prezident Sh. -Toshkent, 2017 yil, 4-avgust.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tiziminiya yanada yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2909 sonli Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdag'i "Oliy ta'lim muassalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789 sonli Farmoni

6. Karimov F. O'zbek mumtoz adabiyotining bosh nazari masalalari. / Q. Pardayev. M uqimiy muvashshahlari, M uqimiy she'riyatida tahrir masalasi, M

uqimiyning uch qo'lyozma bayozi, M uqimiy ta'rixlari, M uqim iy sayohatnomasi tarixidan

- 7.G'ulom Karimov - marifat fidoisi. - T.: Mumtoz sus, 2009. - B.56-63;
- Sirojiddinov Sh., Umarova S. O'zbek matnshunosligi kirralari. - 2015.- B. 7-9;
8. Matnshunoslik saboklari. - T.: Navoiy universiteti, 2019. - B. 18;
9. Jabborov N. Badiy matn tahrining xus husiyatlari / "O'zbek adabiyotshunosligining talqin va tahlil muammolari" mazuidagi ilmiy-nazari anjuman materiallari. - Toshkent, Mumtoz suz, 2014.- B. 28-32;
- 10.O'zbek matnshunosligining dolzarb muammolari / "Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosliging yangilanish tamoyillari" mavzusidagi/Toshkent, 1943, 5 may;
- 11.Aripov M. Axborot texnologiyalari. - T.: Noshir, 2009.
- 12.Asqarova M. va boshq. O'zbek tili praktikumi. -T.:TDPU, 2007.
- 13.Husanov H. va boshq. O'zR OO'MTVning 2017-yil 24-avgustdagи 603-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbek tili" fani dasturi (barcha bakalavriat ta'lim yo'naliishlari uchun). -T. -2017. –17 b.
- 14.Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. - T.: Iste'dod, 2008. - 180 b.
- 15.Glenn S. Levine. Global Simulation: a student-centered, task-based format for intermediate foreign language courses// Foreign language annals. Spring, 2004. Vol. 37, -No. 1. –P. 26-35.
- 16.Karimova Z. Ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda audio-vizual vositalarning o'rni <http://ziyo.edu.uz>.
- 17.Кирмайер Г. Мультимедиа. –Москва: Малип, 2004. –Б. 28.
- 18.Matthew C. Haug. Philosophical Methodology: The Armchair or the Laboratory? - NYC, 2013.
- 20Plonsky L., Ziegler N. The CALL-SLA interface: insights from a second-order synthesis// Language learning & technology. June 2016, Vol.20, -No. 2. -P. 17–37.
- Po'latov A. Kompyuter lingvistikasi.–T., 2011.Sultonsaidova S., Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. -T.: Yurist-Media markazi, .
http://conference.adu.uz/nmot/files/nutq_madaniyati_%20va_ozbek_tilshunosligi_2020.pdf. Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Azimova U.A. o'qituvchi, TDIU Umida19720409@gmail.

Elektron ta'lim resurslari

- www.ziyonet.uz.tstu_info@edu.uz info.com.uz
<http://ru.wikipedia.org> www.elektron-lugat.zn.uz
www.ru.1september.ru
<http://www.uchportal.ru/> <http://eLugatAKT.rar>
<http://slovar.olam.uz/> http://sahifa.tj
<http://www.langmaster.com/>

Iqtisodiy tadqiqotlar 2021 yil, 1-son

www. scopus.com Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com> Т. 5. №4. 2019 DOI:10.33619/2414-
www.istanbul.edu.tr/<http://www.washington.edu/>, <http://www.uva.nl/en/home/>,
<http://london.ac.uk/><http://www.uop.edu/>www.ivran.ru<http://elm/az/><http://elm/az/>,
[www.navoiy-uni.uz;](http://www.navoiy-uni.uz/)